



**MUSIQA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ASOSIY VOSITA -
USTOZ SHOGIRD, VORISIYLIK AN'ANALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11221072>

Rustamov Ismoiljon Dexqonovich

*FarDU san'atshunoslik fakulteti Vokal va cholg'u ijrochiligi
kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada vorisiylik tushunchasining mazmun-mohiyati, milliy musiqa madaniyatni rivojlantirishda vorisiylik asosiy tamoyil bo'lishligi, milliy madaniyatlarning bir-biriga ta'siri, tarixiy jarayonda madaniy an'analarning o'rni va roli beqiyos ekanligi, shuningdek, vorisiylikda milliy musiqa madaniyatning asosi bo'lgan folklor, dostonchilik, maqom san'atining asosiy tamoyili sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

madaniyat, milliy madaniyat, musiqa madaniyati, folklor, dostonchilik, maqom san'ati, vorisiylik va meros, milliy meros, merosxo'r, etnos, xalq, barkamol avlod, shaxs.

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается сущность понятия преемственности, то, что преемственность является основным принципом в развитии национальной музыкальной культуры, влияние национальных культур друг на друга, место и роль культурных традиций в историческом процессе несравнимы, а также то, что национальная музыка является основой культуры, последовательно анализируется как главный принцип фольклорного, эпического, статусного искусства.

Ключевые слова

культура, национальная культура, музыкальная культура, фольклор, эпос, статусное искусство, преемственность и наследие, национальное наследие, наследник, этнос, народ, совершенное поколение, личность.

ABSTRACT

In this article, the essence of the concept of succession, the fact that succession is the main principle in the development of national music culture, the influence of national cultures on each other, the place and role of cultural traditions in the historical process is incomparable, as well as the fact that national music is the basis



of culture in succession. It is analyzed as the main principle of folklore, epic, status art.

Key words

culture, national culture, music culture, folklore, epic, status art, succession and heritage, national heritage, heir, ethnos, people, perfect generation, person.

Har bir avlod madaniy rivojlanishni bo'sh joydan emas, balki o'zidan oldingi avlodlar yaratgan milliy qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlaydi. Bu o'zlashtirish o'ziga xos bir xom-ashyo, yangi qadriyatlarni yaratish, madaniyat, shu jumladan, milliy musiqa madaniyatni yuqori bosqichga ko'tarish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Mana shu ikki jarayon – eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ob'ektiv zaruriy bog'lanish vorislikning mohiyatini tashkil etadi.

“... Dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish turli qita va mamlakatlar vakillarini bu go'zal maskanda mujassam etgan...”[1,100] milliy musiqa madaniyati bugungi kungacha bezavol yetib kelmoqda.

Madaniyatda vorislik haqida gap ketganda taraqqiyotga xizmat qiladigan (progressiv) va rivojlanishga to'siq bo'ladigan (reaksion) hamda pozitiv va negativ vorislikni farqlash katta ahamiyatga ega. Madaniyat o'z rivojlanishining har bir bosqichida oldingi davr natijalariga tayanadi. Rivojlanishning keyingi bosqichlarida oldingi davr natijalarining saqlanib qolishi vorislikning pozitiv mazmunga egaligini ko'rsatadi. Oldingi davr natijalariga tayanish faqat ijobiy hodisalarnigina saqlashni anglatmaydi. Balki madaniyat tarixida ko'p asrlar davomida to'g'ri deb hisoblanib, keyin noto'g'riligi tasdiqlangan hodisalar ham ma'lum. Masalan, Demokritning “atomlar olamning eng mayda, bo'linmas, oxirgi g'ishtchalaridir” degan qarashlarini olishimiz mumkin.

Vorisiylikda madaniy an'analarining o'rni va roli beqiyosdir. Zero, ular tufayli asrlar davomida tarixiy tajriba to'planib, ajdodlardan avlodlarga o'tadi, kishilar birligining muayyanligi ta'minlanadi, o'zlikni saqlab qolish imkoniyati paydo bo'ladi. Madaniy an'analar deganda faqat, ayrim hollarda bo'lganidek, marosimlar va urf odatlarni tushunish unchalik to'g'ri emas. Chunki bir tomondan, kishilik jamiyati rivojlanishi davomida yuzaga kelgan har qanday marosim, urf-odatlar ham uzoq yashamasligi, demakki, an'anaga aylanmasligi mumkin. Ikkinchi tomondan, madaniy an'analar tushunchasi marosimlar, urf-odatlar kabi hodisalarni ham o'z ichiga qamrab olgan holda ularga nisbatan kengroq mazmun kasb etadi. Zero, madaniy an'analar vorisiylik asosida avloddan avlodga o'tib boradigan, tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar, bilimlar, qadriyatlar, xulq normalari va shu kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.



Madaniyatning, shuningdek, milliy musiqa madaniyatining har bir sohasida an'ana o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish, fan yo'nalishida bo'lgani kabi, san'at sohasidagi an'analar ham bir-biridan o'zining takrorlanmas bo'yoqlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, musiqa madaniyatining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorisiylik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan, madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish nazarda tutiladi[2,4]. Agar madaniyatda faqat o'tmish natijalarini o'zlashtirish va takrorlashdan nariga o'tilmaganda edi, insoniyat o'z madaniy rivojlanishini ta'minlay olmagan bo'lar edi.

Xalqimiz tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, bunday fojiviy hodisalar ko'plab bo'lganini, sinfiylik nuqtai nazaridan baholash natijasida, qirg'inbarot urushlar oqibatida betakror milliy madaniy merosimizdan mahrum bo'lganimizni kuzatish mumkin. Shu jihatdan olganda, Oktabr to'ntarishidan keyingi davr g'oyat tahlikali bo'lganini ta'kidlash zarur. Chunki bu davrda milliy madaniyatga sinfiylik nuqtai nazardan qarash ustuvor bo'lib keldi. Oktabr voqealaridan keyin yuzaga kelgan, o'tmish madaniyatiga tayanmagan, uni butunlay yo'q qilgan holda yangi - proletar madaniyatini yaratish shiori bilan chiqqan "Proletkult" tashkilotining faoliyati g'oyat salbiy bo'ldi. Garchand rasmiy bolshevik rahbarlari bunday qarashlarni qoralagan bo'lsalar-da, madaniy merosga "oqmi-qora" ruhida qarashning ustuvorligi o'ta mudhish oqibatlarga olib keldi. Xususan, 1950-yillarda 20000 dan ko'proq madaniy yodgorliklar vayron qilindi. Farg'ona vodiysidagi tarixiy yodgorliklarning uchdan bir qismigina omon qoldi, xolos[3,70].

Milliy merosimizga sinfiylik pardasi ostidan qarashning zararli oqibatlari, afsuski, faqat yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Milliy madaniy merosimizning ko'pgina qatlamlari o'tmish sarqitlari, keraksiz, umrini yashab bo'lgan, patriarxal hodisalar sifatida baholandi. Oqibatda xalqimizning noyob durdonalari bo'lgan "Maqom", "Baxshichilik", xalq og'zaki ijodi bo'lgan "Folklor" san'atining yo'q bo'lib ketish xolatiga tushib qoldi. Bu sohalarda to'plangan tajriba va yutuqlarni bugungi kunda misqollab qayta tiklashga to'g'ri kelmoqda.

Voqelikka sinfiy yondashuv xalq og'zaki ijodida ham fojeali iz qoldirdi. Bu davrning mudhish qiyofasi Qurbonnazar Abdullaev (Bola baxshi)ning quyidagi so'zlarida o'zining yorqin ifodasini topgan: "1933-1940 yillar orasi qo'rqinchli yillar. Eng yaxshi kishilar bedarak ketar, kitoblar, qo'lyozmalar yo'q qilinlar... O'sha paytda "o'tmish sarqiti", "feodal davri mahsuli" sifatida maqom va dostonlarni ijro etish man qilindi. Men yetti yil doston aytmadim. Aytgan bo'lsam ham yashirini tarzda, kinga butunlay ishonsam o'shalarga aytib yurdim"[4,1].

Bugungi kunda madaniy merosimiz bo'lgan milliy musiqa madaniyati o'zining butun salohiyati bilan xalqimiz ma'naviy dunyosining uzviy qismiga aylanib bormoqda. Vorislik mexanizmlari tiklanishi natijasida milliy musiqiy



madaniyatimiz yaxlit, xilma-xil ranglar va jilolardan iborat bir butun hodisa sifatida kamol topmoqda. Bu esa, Yangi O'zbekistonda "...ana shu betakror musiqiy merosimizni vorisiylik asosida chuqur o'rganish, musiqa san'atini yanada rivojlantirish, keng ommaga yetkazish imkonini yaratdi"[5,76]. Ayni paytda, milliy musiqa madaniyatimizning asossiz tarzda unutilayozgan an'analari keng miqyosda tiklanmoqda, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga eski andazalaru stereotiplardan xoli bo'lgan holda baho berilmoqda.

Buyuk Turon zaminida milliy musiqiy madaniyatning rivojlanishi va keyingi avlod yetib kelishida Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning hamda Yunus Rajabiy, Is'hoq Rajabiy, Otanazar Matyoqubov singari musiqashunos olimlarning asarlari har tomonlama tadqiq etilayotgani ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

Vorisiylikning asosiy tamoyillari quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

Vorisiylikning uzviyligida, ya'ni, ajdodlar yaratgan jamiki ma'naviy boylikka yangi avlod merosxo'r bo'ladi, tarixiy ahamiyatini yo'qotgan madaniyat o'rnini yana madaniyatlar vujudga keladi, avvalgilardan ko'p narsalar o'zlashtiriladi. O'tmish tajribasi bugun va kelajak uchun har doim asqotishi mumkin, shuningdek, bugun unitilgan narsalar butunlay yo'qolib ketmaydi. Masalan, V.Shekspir yuz yilcha unitilib, keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va drammaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning o'zgarishi, ya'ni, o'tish davrida xususiyati o'zgarishi mumkin. Mavjud nutqai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talqinidagi mazmun kasb etadi. Mana shunday ko'rinishida u kelajakka meros bo'lib o'tadi. "Qadimiy san'at shu tariqa ko'z qorachig'iday asralib, avloddan-avlodga o'tib keldi"[7,278].

O'tmishdan qolgan barcha narsalar butunlay o'zlashtirilmaydi, balki yangi davr va talabiga, ruhiy javob beruvchi, mohiyatdan zarur narsalargina olinadi. Xozirda eskirgan va kerakmas deb hisoblangan narsalar, kelajakda balki yangi mohiyat va muhim ahamiyat kasb etar.

Uzoq davom etgan qattiq mafkuraning tazyiqlariga qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni vorisiylik asosida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oya ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"[8,137].

O'zbek xalqining milliy musiqa madaniyati merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O'zbekiston xududida e'tiqod qilingan zardo'shtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy-ahloqiy



qadriyatlar mujassamlashgan. Milliy musiqa madaniyati rivojlanishida o'zining benazir xissasini qo'shgan butun dunyoga mashhur Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosat qurilish tajribalari; buyuk me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at asarlari: xalq urf-odatlari va an'analari, milliy sport turlari uyg'unlashgan.

O'zbekistonda har ikki yilda "Sharq taronalari" kabi musiqa festivallarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Xalq bahshichilik san'atiga e'tibor kuchayib Respublika konkurslarini o'tkazilmoqda. Hozirgi davrda ham milliy musiqa madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni qaratgan holda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuqlarini egallashga xarakat qilib, jahon madaniyati rivojiga o'zining munosib xissasini qo'shmoqda. Demak, milliy musiqa madaniyati rivojlantirishda vorisiylik asosiy tamoyil sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -T.: O'zbekiston NMIU. 2019. -B. 100
2. Abrolova M., Galieva D. Musiqa. 2- sinflar uchun. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-mabaa ijodiy uyi. 2008. -B. 4
3. Ibragimov N. Net naroda bez xrama. // Chelovek i politika. 1991. № 10. -B. 70
4. Gazeta Pravda Vostoka. 1989. 1 fevralya
5. Shermuhammedov S. tahriri ostida. Madaniyat falsafasi. -T.: O'zbekiston Vazirlar mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti. 2009. -B. 76
6. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. -T.: O'zbekiston. 2012. -B. 278
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston. 1997. -B. 137.
8. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 353-359.
9. Шокиров, Т. Н. (2022). МИЛЛИЙ МУСИҚА МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (фольклор, дostonчилик, мақом мисолида). Science and innovation, 1(C3), 31-38.



10. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРУБИЙ ШАРҚ МУСИҚА ИЛМИНИНГ АСОСЧИСИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 22-26.

11. Shokirov, T. (2022). NATIONAL MUSIC CULTURE AND ITS DEVELOPMENT PROSPECTS (on the example of folklore, epics, maqom). *Science and Innovation*, 1(3), 31-38.

12. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). The Genesis Of The Development Of Music Culture. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).

13. Нажметдинова, М., & Жўрабоева, Х. (2023). МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 813-817.

14. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2, 47-49.